

UDK: 636.084.065

QORAQOLPOG'ISTON SHAROITIDA BROYLERLARNI OZIQLANTIRISH USULLARI VA ME'YORLARI

J.Kdirbayeva Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali tayanch doktoranti
A.E.Yangiboyev Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali q.x.f.f.d, dotsent
I.R.Xolbo'tayev Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali mustaqil izlanuvchisi

QORAQOLPOG'ISTON SHAROITIDA BROYLERLARNI OZIQLANTIRISH USULLARI VA ME'YORLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qoraqolpog'iston Respublikasi hududida parvarishlanadigan broyler krosslari ularni parvarish qilis. Broyler jo'jalarni o'sish rivojlanishini yaxshilash uchun ularni oziqlantirishga alohida etibor berilishi kerak. Broyler jujalarni oziqlantirishda belgilangan retseptlar bo'yicha omuxta yem tayyorlanadi. Broyler jujalarni to'liq qiymatli oziqlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligi. Jo'jalarni oziqlantirishda to'liq qiymatli oziqlantirish uchun omuxta yem retseptini tuzishning ilmiy asosda o'rganish va ularni tez fursatda o'stirish to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: protein, bug'doy, valin, leysin, trikalsiyfosfat, baliq uni, quruq sut, ferment, makkajo'xori, retsept, vitamin, ozuqa qo'shimchalari.

СПОСОБЫ КОРМЛЕНИЯ БРОЙЛЕРОВ В УСЛОВИЯХ КАРАКАЛПАКСТАНА И НОРМЫ

АННОТАЦИЯ

В этой статье позаботимся о бройлерных кроссах, которые содержатся на территории Республики Каракалпакстан. Особое внимание следует уделять кормлению цыплят-бройлеров для улучшения их роста. При кормлении цыплят-бройлеров мягкие корма готовят по установленным рецептам. Важно кормить цыплят-бройлеров полноценным питанием. Дана информация о научном обосновании составления рецепта полноценного кормления цыплят и их быстрого роста.

Ключевые слова: белок, пшеница, валин, лейцин, трикальцийфосфат, рыбная мука, сухое молоко, фермент, кукуруза, рецептура, витамин, пищевые добавки.

METHODS AND STANDARDS FOR FEEDING BROILERS IN THE CONDITIONS OF KARAKALPAKSTAN

ANNOTATION

This article discusses the care of broiler crosses raised in the Republic of Karakalpakstan. Special attention should be paid to feeding broiler chicks to improve their growth and development. When feeding broiler chicks, compound feed is prepared according to established recipes. It is important to provide full-value nutrition for broiler chicks. Information is provided on the scientific study of the preparation of compound feed recipes for full-value nutrition in feeding chicks and their rapid growth.

Keywords: protein, wheat, valine, leucine, tricalcium phosphate, fish meal, dry milk, enzyme, corn, recipe, vitamin, feed additives.

KIRISH

Asosiy izlanishlar: Hozirgi kunda go'sht yo'nalishidagi broyler jo'jalar go'shtiga iste'molchilar talabining salmog'i ko'payib, bir qancha broyler go'shti yetishtiruvchi tadbirkorlik xo'jaliklari soni ortib borayotgan bo'lsa-da, Ross-308 krossli broyler jo'jalarini o'sish va rivojlanish, mahsuldorlik sifatlarini yaxshilash hamda boquv davrini imkon qadar qisqartirish asosiy vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun O'zbekiston olimlaridan S.Azimov, D.Azimov, A.Alimov, M.A.Ismoilov, A.Tursunov, G'.Jumaniyozov, G.B.Ibodullayeva, Sh.Doniyorov va boshqalar tomonidan go'sht yo'nalishidagi parrandalarni parvarishlash, o'sish va rivojlanish ko'rsatgichlarini oshirish usullarini o'rganishda turli parvarishlash va oziqlantirish usullaridan foydalanish mumkinligi to'g'risidagi ilmiy tadqiqot ishlarni olib borishgan.

Qoraqolpog'iston sharoitida broylerlarni oziqlantirish usullari va me'yorlari

Broyler jo'jalar boshqa qishloq xo'jalik parrandalariga qaraganda o'sish sur'atining tezligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ularni birinchi kundanoq to'liq ratsionli omuxta em, tarkibi muvozanatlashgan ozuqa bilan boqish muhim ahamiyatga ega. Broyler jo'jalarini oziqlantirish 3 davrga (boshlang'ich — 1—10 kun, o'sish — 11—24 kun va yakuniy — 25 kun va undan yuqori) yoki 2 davrga boshlang'ich (1—4 haftalik) va yakuniy (5 hafta va undan yuqori) davrga bo'linadi.

Quyidagi jadvalda broyler jo‘jalariga beriladigan ozuqa me‘yori, ratsion tarkibi miqdoriga nisbatan foiz hisobida berilgan: 100 gramm ozuqa tarkibidagi energiya almashinuvi (OE) uchun kilokaloriyada, qolganlari uchun foizda berilgan.

№	Moddalar nomi	Broylerlar (1 - 4 kunlik)	Broylerlar (1 - 4 haftalik)	Broylerlar (5 haftadan yuqori)
1	Energiya almashinuvi (OE)	310	310	315
2	Oqsil (xom protein)	18,0	22,0	19,0
3	Kletchatka (biriktiruvchi to‘qima)	2,9	4,5	4,5
4	Lizin	0,95	1,15	1,05
5	Metionin	0,31	0,48	0,44
6	Tsistin	0,25	0,28	0,32
7	Triptofan	0,21	0,23	0,21
8	Arginin	0,97	1,25	1,14
9	Gistidin	0	0,48	0,44
10	Leytsin	0	1,61	1,47
11	Izoleytsin	0	0,88	0,80
12	Fenilalanin	0	0,80	0,74
13	Tirozin	0	0,69	0,43
14	Treonin	0	0,80	0,74
15	Valin	0	0,98	0,89
16	Glitsin	0	1,04	0,95
17	Ca (kaltsiy)	0,25	1,00	0,90
18	P (fosfor)	0,47	0,80	0,70
19	Na (natriy)	0,18	0,3	0,3

Broyler jo‘jalarini vitaminlar(darmondori)ga bo‘lgan talabi: 1 tonna ozuqa tarkibidagi A, D3 vitaminlari uchun million IE(Xalqaro birlik)da, qolganlari uchun grammda berilgan.

№	Vitaminlar nomi	Broylerlar (1 - 4 kunlik)	Broylerlar (1 - 4 haftalik)	Broylerlar (5 haftadan yuqori)
1	A	10,0	10,0	7,0
2	D3	1,5	1,5	1,0
3	E	10,0	10,0	5,0
4	K	2	2	1
5	B1	2	2	1
6	B2	3	3	3
7	B3	10	10	10
8	B4	500	500	500
9	B 5	30	30	20
10	B6	3	3	3
11	B9	0,5	0,5	0,5
12	B12	0,025	0,025	0,025
13	PP	0,1	0,1	0
14	C	50	50	50

Jo‘jalarning birinchi 4 kunligida ularni oziqlantirishda engil hazm bo‘ladigan ozuqa aralashmalaridan foydalanish mumkin. Quruq sut mahsulotlari, makkajo‘xori va bug‘doy yormalari, soya shroti, vitamin

— mineralli qo‘shimchalari — premikslar shular jumlasidandir.
1-4 kunlik broyler jo‘jalarga tavsiya qilinadigan ratsion

Komponentlar	Miqdori (% hisobida)
Bug‘doy yormasi	35
Makkajo‘xori yormasi	35
Soya shroti	25
Quruq sut	5
Bundan tashqari vitamin-mineralli premiks	0,1

Broyler jo‘jalarini to‘g‘ri oziqlantirishning asosiy ko‘rsatkichlariga ularning jadal sur‘atlarda o‘sishi, suyak to‘qimalarining yaxshi rivojlanganligi, oyoqlarida

quvvatsizlik holatlarining yo'qligi, sog'lomligi va boshqalar kiradi.

Broylarning o'sishi asosan oqsil moddasiga bog'liq bo'lgani uchun ratsionga yuqori biologik to'yimli oqsil moddasiga ega bo'lgan ozuqalarni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Oqsil moddasining asosiy manbalarini hayvon va o'simlikliklardan olinadigan ozuqa qo'shimchalari tashkil etadi. Omuxta tarkibidagi xom oqsilning 20—25 foizini hayvonlarga oid ozuqalarga tegishli bo'lgan oqsillar tashkil etishi lozim.

Broyler jo'jalarini, kelib chiqishi xayvonlarga oid bo'lgan ozuqalar hamda makkajo'xori va soya shrotlari bilan kerakli miqdorda ta'minlashdagi mavjud qiyinchiliklarni hisobga olib, ular o'rniga parranda ozuqasi uchun tsellyuloza(kletchatka)ga boy bo'lgan, kelib chiqishi o'simliklarga oid bo'lgan ozuqalarni ishlatishga to'g'ri kelmoqda.

Broylerlar ratsionidagi ozuqalar tarkibiga kiruvchi protein miqdorini, kelib chiqishi hayvonlarga oid (baliq uni, go'sht-suyak uni, quruq sut mahsulotlari) va o'simliklarga oid (soya va kungaboqar shrotlari) bo'lgan ozuqalar hamda ozuqa xamirturushlari bilan to'ldirish mumkin. Broyler jo'jalarining go'shtidan baliq xidi kelmasligi uchun, baliq uni oxirgi 10 kunlikda ratsiondan chiqariladi.

Xonadonda boqishga mo'ljallangan broyler jo'jalar uchun ozuqa ratsioni na'munasi (% hisobida)

Ozuqa tarkibi	Jo'jalar yoshi, haftada	
	1—4	5 va undan
Bug'doy doni	35	37
Makkajo'xori doni	25	20
Soya shroti	23	20
Kungaboqar shroti	5	10
Baliq uni	5	2
Ozuqa xamirturishi	3	5
Mineral ozuqalar	1	1
O'simlik yog'i	3	5
Bundan tashqari vitamin-mineralli premiks	0,1	0,1

Ratsiondagi energiya yetishmovchiligini 3—5 foiz o'simlik moylarini qo'shish bilan qoplash mumkin. Moylarni jo'jalar yoshi 1 kunlikdan boshlab 2-3 foiz, 4 haftalikdan boshlab 4-5 foiz ratsionga qo'shish tavsiya etiladi.

Har kuni tirik vazni 50 grammdan o'rsadigan broyler-jo jalariga mo'ljallangan ozuqa retsepti (% hisobida)

Ozuqa tarkibi	Jo'jalar yoshi, hafta		
	1-3	4-5	6—7
Bug'doy	33	32	36
Makkajo'xori	25	25	25
Kungaboqar shroti (34% xom	7	9	10
Soya shroti	23	20	18
Go'sht-suyak uni	1,95	4	4,2
Baliq uni	4	3	—
O'simlik yog'i	3	4,3	4,2
Lizin (monoxlorgidrat)	0,25	0,25	0,2
Metionin	0,3	0,25	0,2
Osh tuzi	0,3	0,3	0,3
Deftorirovanno'y fosfat (Ca-30%, P-18%)	1,2	1,0	1,0
Ozuqa ohagi (izvestnyak)	1,0	0,9	0,9
Bundan tashqari vitamin-	0,1	0,1	0,1

Broylerlarning jadal o'sishi va me'yorda rivojlanishi uchun mineralli oziqlantirish katta ahamiyatga ega. Ozuqa ratsionini mineral moddalar bilan muvozanatlashtirish maqsadida bo'r, suyak uni, ftorsizlantirilgan fosfatlar qo'shiladi. Bundan tashqari imkon bo'lganda chig'anoq qo'shish ham yaxshi natijalar beradi. Ratsionda kaltsiy bilan fosfor munosabati 2 : 1 ni tashkil etishi lozim.

Modda almashinuvini yaxshilash va hosil bo'layotgan energiyadan hamda proteindan yuqori samarali foydalanish maqsadida broylerlar ratsioniga tarkibida biologik aktiv moddalar bo'lgan premikslarni qo'shish yaxshi natija beradi.

10 kundan boshlab broylerlarga har bir bosh jo'jaga 1—2 grammdan haftada bir marta mayda toshlar(graviy) beriladi. Boshlang'ich davrda broylerga hajmi 1,0—2,5 mm bo'lgan, yakuniy davrda hajmi 3,0—3,5 mm bo'lgan yiriklikdagi omuxta emlar bilan boqish biologik va iqtisodiy samara beradi.

Bir kunda bir bosh broyler jo'jaga tahminiy ozuqa sarfi

Jo'jalar yoshi	Ozuqa sarfi
1—7 kun	erkin beriladi
2 hafta	38 gramm
3 hafta	107 gramm
4 hafta	185 gramm
5 hafta	200 gramm

ADABIYOTLAR

1. A.Yangiboyev, I.Xolbo'tayev, N.Sattorov. Utilization of nitrogen and mineral substances by the organism in the care of ross-308 broiler chicks with the help. International Conference on Developments in Education Hosted from Toronto, Canada [https: econferencezone.org](https://econferencezone.org) 21 st August – 2024 9-16 bet
2. A.Yangiboyev, I.Xolbo'tayev, N.Sattorov. Tetrabiotik yordamida broyler jo'jalarini parvarishlashda ozuqa moddalari va energiyaning organizm tomonidan o'zlashtirilishi. International Conference on Developments in Education Hosted from Saint Petersburg, Russia [https: econferencezone.org](https://econferencezone.org) July - 23rd 2024 10-17 bet
3. A.Yangiboyev, I.Xolbo'tayev, A.Narimov. Tuxum yo'nalishidagi jo'jalarni Quruq sut ozuqa qo'shimchasi yordamida parvarishlashda Aniqlash tajribasini o'tkazish natijalari Open Academia: Journal of Scholarly Research Volume 1, Issue 8, August, 2024 ISSN (E): 2810-6377 Website: <https://academiaone.org/index.php/4> 1-5 bet
4. I.R.Xolbo'tayev - Broiler jo'jalarining tirik vazn dinamikasi, o'sish intensivligi va yashovchanligiga Tetrabiotik probiotigining ta'siri. Chorvachilik va naslchilik ishi ISSN-2181-9459 Ilmiy-amaliy jurnal №4 2024 yil 18-21 bet
5. I.R.Xolbo'tayev Effect of tetrabiotic probiotic on quantitative and qualitative indicators of broiler chicken meat. Neo science peer reviewed journal volume 24, august - 2024 ISSN (e): 2949-7701 www.neojournals.com 1-6 papers